

Karel CHAPEK

Atoqli chex yozuvchisi 1890 yil 9 yanvarda Chexiyaning Male-Svetanvitse tumanida tugʻilgan, 1938 yilning 25 dekabrda Pragada vafot etgan. Praga universitetining falsafa fakultetida tahsil olgan. Asarlari oʻz davridagi ijtimoiy muammolarni dadil yoritgan, shuningdek, inson ruhiyatining eng nozik qirralarigacha aks ettirgan bilan ahamiyatli. "Krakonot bogʻi", "Yorugʻ tubsizliklar", "Chormixga tortish", "Gʻamgin hikoyalar", "Bir choʻntakdan hikoyalar", "Boshqa choʻntakdan hikoyalar" kabi toʻplamlari, "Gordubal", "Oddiy hayot", "Absolyut fabrikasi" romanlari, robotlar jangi haqida hikoya qiluvchi "R.V.R" dramasi va boshqa koʻpgina asarlari katta shuhrat qozongan.

Hikoyalar

MAVHUM TASAVVUR

- Vijdon, - deya soʻz boshladi pan Latsina. - Menimcha, hozir bu soʻz sal boshqacharoq maʼnoda ishlatiladi. Balki uni endilikda "mavhum tasavvurlar" toifasiga kiritisa boʻlar, xaytovur, sizni bizga baribir emasmi? Bilmadim, sizlar fabrika egasi Girke voqeasini eshitganmisiz, yoʻkmi, uni judayam boy va obroʻli, qaddi-qomati kelishgan, pahlavon kelbatli janob deyishardi.

Anchadan beri soʻqqabosh ekan. U xaqda xech kim hech nima bilmasdi. Xullas, ana shunday odamovi, sirli va oʻziga xos odam edi. U qirqa kirganida oʻn yettiga endi toʻlgan, koʻgirchoqdek bir doʻndiqchani sevib qolib, unga uylandi. Yuragida qoʻri, belida quvvati bor ekan-da boyaqishning. Haqiqiy goʻzallikdan gohida odamning yuragi gʻash tortadi, baʼzan nimagadir iching achisha boshlaydi, baʼzan qalbingga qandaydir nafosat oqib kirganini sezmayсан, ishqilib, shunaqa-da! Girke ana shunday latofatli qizga uylangandi - u judayam badavlat, qoʻli uzun odam edi-da!

Kelin-kuyov asal oyini oʻtkazish uchun Italiyaga joʻnab ketishdi. U yerda gʻalati bir hodisa yuz berdi. Venepiyadagi mashhur cherkov minorasiga chiqishgach, Girke u yerdan pastga qaragan - aytishlaricha, u yerdan hammayoq juda chiroyli koʻrinarkan, - shunda Girkening rangi oqarib, xotiniga yuzlangan-da, xuddi tagiga bolta urilgan daraxtdek uning oyoqlari ostiga qulagan-qoʻygan. Shundan beri Girke yanada odamovi boʻp qolgan. U oʻzini xuddi hech narsa boʻlmagandek tutishga harakat qilsa-da, tashqi koʻrinishi anchayin oʻzgargan, bezovtaligi yaqqol sezilib turardi.

Xullas, oʻshanda xotini juda qattiq xavotirga tushib, erini olib darrov uyga qaytgan. Ularning uyi juda chiroyli, hashamatli boʻlib, derazalari shahar xiyoboniga qarab ochilardi. Girke ruhiyatidagi oʻzgarishlar ham ana shundan keyin boshlandi. U sira derazalar yonidan ketmas, ularning yopilgan-yopilmaganini tekshirib yurardi. Kutilmaganda oʻtirgan joyidan sapchib turardi-da, yana derazalar tomon yugurardi. Hatto kechalari xam xuddi arvoxdek uy boʻylab izgʻir, savollardan boshi tinimsiz aylanar, derazalar ochiqligi va ularni darhol tambalab olish kerakligini aytib, gʻoʻldirab yurardi. Shunda xotini hamma derazalarga panjara oʻrnatishga qaror qildi. Bu tadbir bir necha kungagina asqotdi. Girke biroz tinchlandi, ammo koʻp oʻtmay, deraza panjaralarining mustahkam yoki omonat ekanini bilish uchun silkitib koʻra boshladi. Barcha derazalarga mustahkam poʻlat toʻsiqlar qoplangan, er-xotin bu yerda xuddi qamoqxonadagi mahbuslar kabi

o'tirishardi. Girke ma'lum muddat xotirjam yurdi. Ammo keyinchalik zinapoyalardan tushayotganda ham boshi gir aylana boshlaganini his etdi. U endi falajga uchragan nogirondek zinapoya tutqichlaridan mahkam ushlab, arang yurar, shu asnoda naq qora terga botib ketar, zinaning qoq yarmida o'tirgancha xuddi bezgak tutgandek qaltirardi. Bechora juda qiynalib ketdi.

Tabiiyki, imkon darajasida shifokorlarga murojaat qildilar. Ularning biri ishonch bilan bosh aylanishi - organizmning kuchli zo'riqishi natijasi, desa, boshqasi - quloq atrofidagi qandaydir kasallik belgisi, dedi. Yana birovi kabziyat, deb tashxis ko'ysa, to'rtinchisi miya faoliyatining buzilishi bilan bog'ladi.

Yana bir tanikli mutaxassis uni turfa qiynoqlarga solib, yangicha usullar bilan davolab ko'rmokchi bo'ldi. Yaxshiyamki, Girke hali baquvvat, sog'lom, irodali yigit ekan, hammasiga chidadi. Ammo hozir u o'rnidan ham qo'zg'alolmay qolgan. Hatto yerga qarashi bilan ko'z oldi korong'ulashib, boshi chirillab aylanardi. U endilikda ko'zlarini ham ochmay, fakat kreslosida harakatsiz o'tirar va yelkalari silkinib unsiz yig'lardi.

O'sha paytlarda allakanday yangi shifokor, nevropatolog Shpits hakidagi gap-so'zlar og'izgatushgandi. U aynan mavhum tasavvurlar bo'yicha mutaxassis ekan. Uning ta'kidlashicha, hayot davomida har qanday odamning ong ostida xilma-xil qo'rqinchli tasavvurlar, noxush xotiralar, sog'inch va ehtiroslar saklanib kolar, vakti-vakti bilan ular uyg'onib, odamning ruhiyatida tushunarsiz ziddiyatlar, asabiy zo'rikish kabi kasalliklarni keltirib chikararkan. Agar shifokor ana shu mudhish tasavvurni aniklab, miyadan siqib chikara olsa, bemor o'zini yengil his kilishi, hatto butunlay sog'ayib ketishi ham mumkin emish. Ammo shifokor ruhiy tahlil yordamida bemorning ishonchini to'la-to'kis zabt etolsagina, uni azoblayotgan eski xotira, tasavvur yoxud tushdagi alahsirash asoratini ilg'ay olarkan. Shundan so'ng shifokor: "Og'aynichalish, bir paytlar sizning hayotingizda shunday-shunday ish bo'lgan ekan (bu juda uyatli biror ish bo'lishi ham mumkin), shu narsa sizning xotirangizda kayta-qayta jonlanaverib, holi-joningizga ko'ymayapti, tibbiyotda buni "ruhiy jarohat" deb ataladi. Endi biz bu jarohatni topdik. Siz undan tamomila kutuldim, deb hisoblayvering, xudo xohlasa, endi siz soppa-sog'siz", der ekanu, shu bilan olam guliston ekan.

Lekin tan olish kerakki, bu shifokor chin ma'noda mo'jiza yaratdi. Siz aynan mavhum tasavvurlardan qanchadan-kancha boylar aziyat chekishini aklingizga ham sig'dirolmaysiz. Bu masalalar kambag'allarni kamdan-kam bezovta kiladi. Xullas, Shpitsning mijozlari o'ziga xos edi. Xullasi kalom, Girkeni tibbiyot olamining kazo-kazolari tekshirib ko'rib, biror iloj topolmagach, shu Shpitsga murojaat kilishdi. Shpits esa, bu hakda eshitishi bilan bosh aylanishi aynan asab bilan bog'lik ekani, bu xastalikdan osongina kutulish mumkinligini aytdi. Fakat shu Girke deganlari bilan gaplashish oson kechmadi. Bemor uning savollariga chaynala-chaynala arang javob kaytardi, keyin esa shifokorga eshikni orkasidan berkitishni buyurdi. Shpits kattiq hayajonda edi. Bunaka ruhiy tushkunlik bemorning obro'-e'tiboriga ham soya solardi-da! Bunday holat asab kasalliklari orasida juda kamyob hodisa edi. Ikkinchi tarafdin, bechora, o'n gulidan bir guli ochilmagan pani Irma... Shunday qilib, bizning shifokor shu ishga jon-jahdi bilan kirishdi. "Men Girkedagi o'sha mavxum tasavvur yoxud mudhish xotirani

aniklashim va undan xalos etishim kerak, buni uddalolmasam, tibbiyotni tark etib, do'konga borib, xotinlarning ichki kiyimini sotganim bo'lsin", deya o'zicha axd qildi shifokor Shpits.

U ruhiy tahlilning yangi usulini ko'llashga karor qildi. Dastavval, Girkening yaqin qarindosh-urug'lari, aka~ukalari, tog'ayu ammalari, bojayu kaynog'alari bilan tanishib, ularning ishonchini qozonib oldi. Tajribali shifokor dikqat bilan tinglay bilishi kerak. Qarindosh-urug'lar uning nazokati, xushmuomalaligi, samimiyatiga tan berishdi. Alal-okibat, shifokor birdaniga jiddiy qiyofaga kirdi-da, nufuzli idoraga murojaat kilib, ma'lum bir manzilga ikki nafar ishonchli mas'ul xodimni jo'natishni so'radi. Xodimlar ishni uning foydasiga hal etib kaytgach, Shpits ularni rozi qilib, to'ppa-to'g'ri Girkening uyiga yo'l oldi. Bemor hamon nimkorong'i xonada, qimirlashga xam majoli yetmay o'tirardi.

- Janob, - dedi unga shifokor Shpits. - Sizni ortiqcha bezovta qilib o'tirmayman. Istamasangiz, savollarimga javob bermasligingiz ham mumkin. Men, qanday bo'lmasin, boshingiz aylanishi sababini bilishim kerak. Siz qandaydir mavhum tasavvurni ongingizga joylab olgansiz. U esa sizning sog'lig'ingizni butunlay izdan chiqaryapti.

- Sizni kim chakirdi o'zi, doktor? - xirillab, uning so'zini bo'ldi Girke va qo'lini qo'ng'iroq tugmasiga yubordi.

- Sabr... - dedi shifokor, - bir daqika sabr qilasiz. Venetsiyadagi cherkov minorasiga chiqqaningizda, boshingiz aylanishidan sal avvalroq... yaxshilab eslang, janob, nimani his kilgansiz?

Girke qo'lini tugmadan olmay, o'tirgan yerida kotib koldi.

- Siz, - davom etdi shifokor, - siz o'zingizda juda dahshatli, aklga sig'maydigan bir mudxish xohish - yosh va go'zal xotiningizni ana shu minoradan itarib yuborish istagini his etgansiz. Ammo siz uni telbalarcha sevardingiz, shunda ichingizda kuchli bir ziddiyat paydo bo'ldi va u kuchli ruhiy iztirob tufayli zaiflashdi. Shunda siz muvozanatni yo'kotib, yikilib tushdingiz, to'g'rimi?

Oraga jimlik cho'kdi. Fakat, qo'ng'iroq tugmasiga uzatilgan ko'lgina shalvirab tushdi.

- Xudoga shukur - yengil tin oldi Shpits. - Siz o'zingizni tamomila sog'ayib ketgandek his qilayotgandirsiz?

- Xuddi shunday, - asta javob kaytardi Girke zinapoyadan pastga tushib ketayotgan shifokorni kuzatib kolarkan.

Shifokor ko'cha eshikni yopishi bilan orqadan kattiq gursillagan ovoz eshitildi. Girkeni zinapoya tagidan topishganida, joni uzilgan, a'zoi badani mo'matalok bo'lib ketgandi. Yikilgan paytda boshi zinapoyaning po'lat panjarasiga zarb bilan urilgan ekan.

Shifokor Shpitsga bu hakda xabar qilishganida, u g'alati ahvolda anchagacha bo'shlikqa tikilib koldi. Keyin bemorlarini kayd kilib boradigan daftarini ochdi-da, Girkening ismi sharifi qarshisiga shu kungi sana va "§sh81ssht" so'zini bitib ko'ydi. Endi bu sizni biz tushunadigan tilda "o'zini o'zi o'ldirish" degan ma'noni anglatsa kerak.

MOVIY XRIZANTEMA

Bu voqyeani menga ancha yillar ilgari bir knyazning uyida xizmat qilgan ashaddiy gul shaydosi kekxa Fulinus aytib bergandi.

- Men sizga Klaramning kandy dunyoga kelgani xakida hikoya qilib bersam. U paytlarda Lubensda, knyaz Lixtenberg ismli kimsaning bog'ida xizmat kilardim. Kekxa knyaz bog'bonchilikka juda kizikardi. U dunyoning turli burchaklariga buyurtma berib, eng sara gullarni olib keltirar va o'z bog'ida o'stirardi. O, uning bog'ini jannat deyish mumkin edi.

Kunlarning birida kandydir ish bilan ko'chaga chikkandim. Tasodifan ro'paramdan telbanamo, kar-soqov, o'zining jununvash kulgusi bilan xammaning asabini qo'zg'ab yuradigan qariqiz Klarani uchratib qoldim. Kizig'-a, nega tentaklar xamisha xushvakt bo'lib yurisharkin? Men uning telbanamo o'pichlaridan kochish uchun o'zimni panaga olmoqchi bo'ldim, ko'lidagi ajabtovur guldastani ko'rib, taqqa to'xtadim. Palapartish dastalangan o't-o'lanlar, ko'katlar orasida... bilasizmi, nimani ko'rdim? To'g'ri, hayotimda turfa gullarni ko'rganman, ammo bunakasini umrim bino bo'lib endi ko'rishim edi. Guldasta (agar shunaqa deyish mumkin bo'lsa) orasidan moviyrang baxmal xrizantema manaman deb, bo'y ko'rsatib turardi. Shunaqa chiroyli, shunaqa nafiski... ta'riflab berolmayman. Men xrizantemalarning juda ko'p turini bilaman. Ammo dunyodagi eng qimmatbaxo xrizantemalar orasida ham bunakasi uchramasligiga amin edim.

Ancha yil ilgari Londonda, kariya Jeyms Veychning uyida bo'lganimda, u to'g'ridan-to'g'ri Xitoydan olib kelingan, naparmon hoshiyali moviy xrizantemasi bo'lgani, ammo bir yil o'tmayoq, qishda kurib qolganini afsus bilan gapirib bergandi.

Mana, hozir karshimdagi tentakning ko'lida xuddi o'shanday kimmatbaxo gul yal-yal tovlanib turardiki, bu gulning nazokatini aslo tasavvur etib bo'lmasdi.

Klara iljaygancha menga ko'lidagi guldastani uzatdi. Men unga bir kron pul berib ko'lidagi xrizantemaga imo qildim.

- Klara, buni qayerdan topding?

Klara quvonchdan o'zini yo'qotib ko'ydi va allanarsalarni g'o'ng'illab, kulishga tushdi. Hyech narsani tushunmadim. Undan biror ma'lumot olishga tirishaman, u esa hadeb meni kuchoqlab, o'pmokchi bo'ladi. Xrizantemani ko'tarib, to'g'ri knyazning yoniga yugurdim.

- Zoti oliylari, bu gul shu yakin-atrofdagi o'sgan bo'lishi mumkin. Balki birga izlarmiz?

Kekxa knyaz hovlikkanidan o'zini yo'kotib ko'ydi va foytunni hozirlashni buyurdi, o'zimiz bilan Klarani ham olishimizni aytdi. Bu paytda Klara kayokkadir g'oyib bo'lgandi. Uni kidirmagan joyimiz kolmadi. Knyaz g'azabdan endigina so'kina boshlagan kezda Klaraning o'zi uzokdan biz tarafga yugurib kelayotganini ko'rib koldik. Yuguraverib bechoraning tili osilib kolgan, ko'lida esa hozirgina uzilgan bir dasta moviy xrizantemani ko'tarib kelardi. Knyaz unga yuz kronlik pul uzatdi. Klara alamdan yig'lab yubordi. Chunki sho'rlik umrida yuztalik pulni ko'rmagan va pulning bunaka bo'lishini tasavvur ham kilolmasdi. Shunda o'zim yonimdan bir kronlik pul chikarib berishga majbur bo'ldim. Bechoraning xursand bo'lganini ko'rsangiz...

U sevinchidan xirgoyi kilgancha, raksga tusha boshladi. Biz uni bir amallab foytunga o'tkazdik. "Klara, kayerga boramiz?" - dedim xrizantemani ko'rsatib.

Klara yumshok o'rindikka joylashib o'tirib oldi-da, shodon kiykirib yubordi. U bilan yonma-yon o'tirgan takabbur xaydovchining biram ensasi kotdi-yey! Klara telbalarcha chinkirardi, bundan hurkkan otlar chunonam shatalok otdilarki, ichimiz ezilib ketdi. Uziyam sayrmisan sayr bo'ldi-da. Bir yarim soat yo'l bosdik hamki, moviy xrizantemadan nomu nishon yo'k. Oxiri chidab turolmadim:

- Zoti oliylari, biz o'n to'rt chakirimdan ziyod yo'l bosdik.

- Nima farki bor, - ko'l siltadi knyaz. - Yuz chakirim bo'lmaydimi?!

- Mayli-yu, - dedim unga javoban. - Lekin Klara bir soatdan keyin yana bir dasta gul ko'tarib keldi. Demak, xrizantemalar Lubensdan nari borsa, uch chakirimcha uzoklikda o'sgan bo'lishi mumkin.

- Klara! - baqirdi knyaz xrizantemalarni ko'rsatib, - bular kayerda o'sadi? Qayerdan uzib kelding?

Klara knyazning savoliga javob berish o'rniga nimalarnidir g'o'ldirab, oldinga imo kildi. Chamasi, unga foytunda sayr kilish juda yoqib qolgandi. Nazarimda knyaz Klarani do'pposlagudek vajohatda edi. Otlar jiqqa terga botib ketishgandi. Klara hamon allanimalar deb shang'illar, knyaz asabiy so'kinar, haydovchi yig'lamokdan beri bo'lib borar, men bo'lsam, moviy xrizantemalar haqida bosh qotirardim.

- Zoti oliylari, - deya knyazga yuzlandim. - Bunaqada ish bitmaydi. Keling, Klarasiz qidirib ko'raylik. Lubensning uch chaqiringacha bo'lgan yerlarning xaritasini olaylik-da, hududlarga bo'lib, uyma-uy izlab ko'raylik.

- Azizim, - dedi knyaz. - Lubensdan uch chaqiringacha bo'lgan joyda birorta ham bog' yoki xiyobon yo'q.

- Menam shuni aytyapman, - darrov ilib ketdim. - Bu gulni bog' yoki xiyobondan topib bo'lmaydi. Qarang, xrizantema butog'ining kuyi kismida ozrok qatqalok yopishib qolgan. Bu bog'larning tuprog'iga o'xshamayapti, menimcha, go'ng va kum aralashmasi bo'lsa kerak. Manavi yaprog'ida esa, kaptar tezagidan qolgan iz ko'rinib turibdi. Demak, bu gulni aynan kaptarlar to'planadigan joydan kidirish kerak. Menimcha, bu xrizentema qandaydir chetan devor tagida o'sadi. Mana, barglari orasiga archa po'stlog'i xam ilinib kopti.

Ertasi kuni ertalab Klara yana bir dasta moviy xrizantema olib keldi. Shundan so'ngtamomila asabim qo'zidi. O'z xududimni boshdan-oyok aylanib, xar bir kovokxonada iligan pivo ichib, pishlok kavshab, moviy xrizantema daragini so'roklab yurdim. Voy, bu pishloklarni xozir xam eslasam, ko'nglim ayniydi. Bir tomonda issiqni ayting, odamning enka-tinkasini quritadi. Yana qandaydir gul haqida surishtirishib yurishim odamlarda shubha ham uyg'otdi. Meni yo biror daydi, yo kandaydir ayg'okchi deb o'ylashganmi? Birovdan yaxshi gap eshitmadim hisobi, lekin xammasiga tishimni tishimga bosib, chidadim.

Kechga yaqin shunga amin bo'ldimki, men ishlaydigan hududda xech kanday xrizantema o'smas ekan. Yana uchta ko'shni hududni ham aylanib keldik. Klara esa yana bir bog'lam moviy xrizantema ko'tarib keldi.

Bilsangiz, bizning knyaz bu muzofotning eng obro'li odamlaridan. Maxalliy politsiyachilarni oyoqqa turg'izib, har birining qo'liga bir donadan moviy

xrizantema gulidan tarkatdi va kanday bo'lsin shunday gullar o'sadigan hududni topishni buyurdi.

Politsiyachilar juda savodli odamlar bo'lishadi. Ular tez-tez gazeta o'qib turishadi, o'zlari ishlaydigan hududni, bu yerning odamlarini ham besh qo'ldak bilishadi. O'sha kuniyok, desangiz, oltita politsiyachi qishloq faollari, nazoratchiyu korovullari, o'qituvchi va o'kuvchilar. hatto bir guruh lo'lilarni ham ergashtirib, uch chakirim yerdagi maydonni tekshirishga tushishdi. Qanaqa gul topishgan bo'lsa, hammasini knyazning oldiga tashib kelishdi. Eh-he, knyazning uyi gullarga to'lib ketganini bir ko'rsangiz edi.

Ular orasida faqat moviy xrizantema ko'rinmasdi, xolos. Klaraning orqasidan kuni bilan kuzatib yurdik. Kech kirgach, uning izini yo'kotib ko'ydik. Yarim kechasi esa u menga yana bir quchoq xrizantema ko'tarib keldi.

Biz xrizantemalarni bitta ko'ymay yulib kelmasligi uchun vaktincha Klarani ushlab turishga qaror qildik. O'lay agar, kandaydir vasvasaga tushib kolgandik. Axir bu kanaqasi, hammayok kaftdek tekis bo'lsa...

Davomini eshiting... Agar odamzotning ishlari umuman yurishmasa, u qo'pol va jizzaki bo'lib koladi - buni tushunaman. Lekin, baribir izzat-nafs degani hammadayam bor-da! Knyaz menga nima deganini bilasizmi? Men xatto Klaradan ham battar tentak emishman. Nimayam derdim?! Har qanday qari eshshakning haqoratlarini eshitib, indamay ketaveradigan anoyilardan emasman dedim-u, lash-lushimni ko'tarib, to'ppa-to'g'ri vokzalga tomon yo'l oldim.

Endi Lubensda mening koramni xam ko'rishmaydi. Vagonga chiqishimni kutib turgandek, poyezd ham o'rnidai qo'zg'aldi. Shu payt o'pkam to'lib, xuddi yosh boladek yig'lab yubordim. Nima uchun, aytaymi? Moviy xrizantemani endi boshqa xech qachon ko'rmasligimni, u bilan mangu xayrlashayotganimni o'ylab, ko'z yosh to'kardim.

Oynadan tashqariga qaragancha hiqillab borarkanman, beixtiyor shag'al to'kilgan yo'l yokasidagi kandaydir moviyrang gullarga ko'zim tushdi.

Bunaka paytda o'zimni boshqara olarmidim?! Kanday kilib o'rnimdan qo'zg'alganimu vagondagi tormoz tutkichiga chang solganimni eslolmayman. Poyezd chinqirgancha to'xtadi, men bo'lsam, qarama-karshi tarafdagi to'sikka urilib, barmog'imni sindirib ham oldim, mana, karang!

Bir payt chiptachi yonimga yugurib keldi. Men esa to'ng'illab, zarur bir narsam esimdan chikib kolganini aytdim. Xullas, kattagina mikdorda jarima to'lashga to'g'ri keldi.

Shag'al yo'l bo'ylab ko'rgan moviy chechaklarim tomon chopib borarkanman, o'zimni-o'zim koyirdim. "Balki bu kuzgi namozshom gul yo shunga o'xshash boshqa biror gul bo'lsa-chi? Shuncha pulni havoga sovurib o'tiribsan-a!"

Besh yuz metrilar chamasi yo'l yursam-da, moviy gullarga yetib borolmadim. Balki ular umuman yo'qdir? Ko'zimga ko'ringandir?

Shu chok kichik bir tepalikda yo'l nazoratchisining kulbasiga ko'zim tushdi. Uning shundoqkina karshisida moviyrang manzara ko'zga tashlanardi. Karasam, ikki tup xrizantema shunaka ajoyib tovlanib turibdiki, asti ko'yavering.

Qorovullarning gulzorida nimalar o'sishi mumkinligini yosh bola ham biladi. Qovun-tarvuzmi, qovoqmi, sholg'ommi, nari borsa, ikki tup atirgul yoki nastarin

bo'ladi. Yo'k, bu yerda, kartoshka bilan loviya, na'matak butasi... ikki tup moviy xrizantema bark urib yotardi.

- Amaki, - kichqirdim chetan osha nazoratchiga karab. - Manavi gullarni kayerdan olib kelgansiz?

- Bularmi? - so'radi korovul. - Oldingi o'lib ketgan nazoratchidan qolgan. Bu yo'lakdan yurish takiklangan, o'g'lim! Ana yozib qo'yilgan "Temiryo'l ustidan yurish kat'iy taqiqlanadi" deb. Sen nima kilib yuribsan?

- Amaki, - dedim unga. - Sizning yoningizga kanday o'tsam bo'ladi?

- Mana shu yo'l bilan, - dedi u. - Ammo bu yo'ldan yurish mumkin emas. Mening yonimda nima bor? Bor, yo'lingdan qolma. Fakat shpallarning ustidan yurma!

- Qayoqqa boraman?

- Menga baribir, - baqirdi nazoratchi. - Fakat bu yo'ldan yurma. Mumkin emas.

Men gap kotdim:

- Menga karang, amaki, manavi moviy gullaringizni menga soting!

- Sotmayman, - o'shqirdi chol. - Tuyog'ingni shiqillat, dedim. Bu yerda o'tirish mumkin emas.

- Nega mumkin emas ekan? - mahmadonalik qildim men. - Lavhada bunaka deb yozilmagan-ku?

Nazoratchi shoshib qoldi. Faqat to'ng'illab so'kinish bilan cheklandi. Chamamda chol yolg'iz o'zi yashardi. Keyin uning ovozi ham o'chib koldi. Oradan yarim soatlar chamasi o'tgach, yo'lni tekshirish uchun nazoratchi chikib keldi va meni ko'rib yana tutakdi:

- Ketasanmi bu yerdan yo yo'kmi?

- Ketolmayman, - dedim. - Temiryo'ldan yurish mumkin emas. Yurishga bu yerdan boshka yo'l bo'lmasa...

Chol bir daqiqa o'ylanib koldi:

- Bilasanmi, - dedi u nimanidir kashf etganday hovliqib. - Men mana bu so'kmok yo'l tomon ketaman, Go'yoki seni ko'rmagan kishi bo'laman, sen shu yerdan katta yo'lga chikib olasan.

Men unga minnatdorchilik bildirdim. U so'kmoq yo'l bo'ylab ketdi, ko'zdan yo'kolgach, chetan devordan oshib o'tdimu, chetda turgan belkurakni

olib, har ikki tup gulni qo'porib oldim. Ha, janob, men ularni o'g'irladim. Uzi xalol odamman, bor-yo'g'i yetti marta o'g'irlikka qo'l urganman va yettovida xam faqat gul o'g'irlaganman, xolos.

Bir soatdan so'ng o'g'irlagan moviy xrizantemalarimni kuchib poyezdda ketardim. Qorovulxona devori yonidan o'tarkanmiz, boyagi nazoratchi cholning darg'azab bo'lib bayrok ko'tarib turganini ko'rdim. Unga qarab shlyapamni silkitdim, u esa meni ko'rmadi, chamamda.

Endi gap nimadaligini tushundingizmi, taksir? Axir u yerda kattakon lavha osig'lik turardi: "Bu yerdan yurish taqiqlanadi!" Shuning uchun na men, na politsiyachilar, na o'kuvchiyu o'kituvchilar, na lo'lilar bu yerlarni qidirishni xayollariga ham keltirishmagan. "Taqiqlanadi!" so'zining nechog'li kudratga egaligini ko'rdingizmi?

Kim bilsin, temiryo‘l nazoratchisining uyi yonida eng noyob chechaklar, mehriyo yoki hayot daraxti o‘sar? Ammo uni hech kim topolmaydi, chunki, bu yo‘ldan "o‘tish qat’iy tak’iqlangan", tamom-vassalom!

Klara akli noraso, telba bo‘lgani, o‘kishni bilmagani uchun ham bu yo‘ldan yurib, moviy xrizantemaga duch kelgan.

Men shuning uchun ham bu nodir chechagimga "Klara" deb nom berdim. Bu noyob gulni o‘n besh yildan beri avaylab, parvarishlab kelaman. Men unga keragicha mehr va e’tibor ko‘rsatdim. Anavi galvars nazoratchi bo‘lsa, uni hatto tuzukrok sug‘ormagan, tagini yumshatmagan ham edi.

Mening xrizantemalarim bahorda uyg‘onadi, yozda kurtak ochadi, avgust oyiga borib so‘lib qoladi. Tasavvur kilyapsizmi, men bunday ajoyib gulga ega bo‘lgan yagona insonman. Bu gullarimni biror ko‘rgazmaga yubormayman. Dunyodagi hech bir gul nafosat va latofatda mening erkatoylarim bilan tenglasholmaydi. Chunki bu mening Klaram! U gullagan chog‘da butun olam beqiyos go‘zallikka burkanadi.

Rus tilidan Iqbol HUMOYUN tarjimasi